

YOSHLAR TARBIYASIDA TEATR SAN'ATINING O'RNI (O'LMAS UMARBEKOVNING "KUZNING BIRINCHI KUNI" ASARI MISOLIDA)

Baxtishod G'aybulloyev Baxshulo o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich magistranti, O'zbekiston, Toshkent. sh

Jo'ra Mahmudov Obidovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor O'zbekiston, Toshkent. sh

Har bir xalqning, millatning o`ziga xos uzoq o`tmishga ega tarixi mavjud. Xalq madaniy hayotini, turmush tarzini bir ko`rinishi sifatida asrlar davomida masxaraboz va qiziqchilar san`ati yashab kelgan va yashab kelmoqda. Shu san`atning shakllanishi va rivojlanishi natijasida xalq ichida teatr san`atiga qiziqish paydo bo`ldi va shu san`at teatr san`atini uyg`onishiga ko`prik bo`lgan.. Teatr-o`ziga xos bir olam, ma`rifat o`chog`i.

Yoshlar tarbiyasida teatr san'atining o'rni va ahamiyati muhim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda "O'zbekiston Respublikasida 2017-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, milliy teatrning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish, tomoshabinlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ular qalbi va ongida ezgu g'oyalarni mustahkam qaror toptirish, milliy san'atimizning nodir an'analarini tiklash, asrab-avaylash, targ'ib va tashviq etish maqsadida qator samarali ishlar olib borilmoqda".[1]

Teatr deganda avvalambor san'atning kattakon bir turini tushunamiz. Shu bilan birga teatr - bu tomosha - spektakl qo'yildigan ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Teatr san`ati hayotni, voqeа-hodisalarни turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy yangi o'zbek teatrining yetakchi targ`ibotchilaridan, dunyo teatrlari tarixidan xabardor, teatrning taqaqqiy etgan mamlakatlar ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o`rnini o`rgangan, shulardan xulosalar chiqarib, Turkiston o`lkasi, umuman islom olamida teatrni himoya va targ`ib qilgan san`at darg`asidir. U o`zi muharrirlik qilgan "Oyna" jurnalida teatrni davlat miqiyosida madaniyatning muhim sohasi ekanini isbotlash, ularning Ovrupa mamlakatlaridagi mavqeyini ko`rsatish maqsadida teatr to`g`risida bir qancha ibratli fikrlar aytgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri bilan aytganda, "Teatr san`ati hamma zamonalarda ham millatning ma'naviy ko'zgusi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ`ibotchisi, o'ziga xos "Teatr ibratxonadur"[2] bo'lib kelganligini, bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida teatrning o'rni va ahamiyati yuksak ekanligi ma'lum.

Har doim teatr san`ati inson dunyoqarashi, shaxsning shakllanishida yetakchi o'rni tutgan. Haqiqiy va asl san'at insonni tamomila o'zgartirish, unda vatanparvarlik, insonparvarlik, ishq, ezgulik, go'zallik, olijanoblik kabi oliy umuminsoniy qadriyatlarni ko'rsata olish qudratiga ega.

Bugungi kunda ayrim yoshlarning miliy ma'naviyati yetarlicha shakllanmaganligi oqibatida jinoyatchilik va huquqbarzalik holatlari kuzatilmoqda. O'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri O'lmas Umarbekovning "Kuzning binchi kuni" pyessasi 1979 yilda yozilgan bo'lib mavzu va g'oyasi bugungi kunning eng dolzarb muammolarini qamrab olgan asarlardan biridir.

Sahna asarida asosan uchta oila taqdiri, turmush tarzi, hayotiy voqealr asosida aks etirilgan. Bosh qahramonlar Sobir, onasi, otasi esa ichki - ishlar xodimi, Farhodning otasi bir insonni hayotini asrab qolaman deb nobud bo'lgan, u yakka-yu yagona onasi bilan birga yashaydi, Ramziddin onasi tibbiyot institutini tugatgan, otasi professor, fan nomzodi. Uch qahramonimiz ham institut talabalari. Voqeal Sobirlarning uyidan boshlanib ertalab sahar Sobir onasi bilan dadasini matiz va'da qilganini, qachon olib berishini aytib, tortishib onasiga quloq solmasdan uydan chiqib ketadi. Mazkur sahna asari qiziqarli syujet, kuchli dinamikasi bilan tomoshabobdir. Sobir onasiga quloq solmasdan kursdoshlari Ramziddin va Farhod bilan uchrashadi va institutda bo'ladigan darsga kirmasdan Farhodning uyiga aroq ichib, aysh-u ishrat qilish uchun borishadi. Hamma balo, ya'ni jinoyatning debochasi shu yerdan boshlanadi. Farhodning uyida otasidan qolgan miltiqni Sobir olib chiqadi va Ramziddinning fikri bilan miltiqni otishga qaror qilishadi. Miltiq otiladi va bu qaltis harakat orqali ko'chadan o'tib ketayotgan to'rt nafar bolasi bor begunoh yo'lovchining umriga zomin bo'lishadi. Shu tariqa qilg'ilikni qilib qo'ygan kursdoshlar begunoh yo'lovchiga yordam bermasdan Ramziddinning otasi bo'lmish Professor To'laganovning uyiga qochib borishadi. To'laganov bu voqeadean xabardor bo'la turib yoshlarni yashirish uchun dala hovlisiga jo'natadi. Professor To'laganav bo'lib o'tgan voqeani jinoyat ekanini bila turib nima sababdandir ularni himoya qilish yo'llarini izlaydi. Sobirning otasi bolasini izlashga tushadi hamda voqealar rivoji asosida Ramziddinning otasi ularni dala hovlisiga yashirib qo'yganini, tanish-bilishlarini ishga solayotganini, ularni qutqarib olishini aytadi. Lekin bu so'zlarga Sobirning otasi quloq solmay To'laganovni dala hovlisiga boradi va o'g'li Sobirni u yerdan olib, bo'lgan voqeani hammasini ichki ishlar idorasiga borib aytib berishini talab qiladi. Biroq Ramziddin ularni chiqib ketmasligini, qadam bossa ikkilansandan o'dirishini aytib do'q-po'pisa qiladi. Shu yerda Shokir aka Sobirni urishib kimlarga qo'shilganini aytib yurak xuruji tutib yiqiladi va Sobir Ramziddinga "Nima qilib qo'yding Ramziddin" deb baqiradi. Ramziddin pichoq qo'lida ekanini, hech narsa qilmaganini aytadi. Shu tariqa Shokir aka ham bu dunyoni tark etadi. Xullas, biz fikr yuritayotgan dolzarb mavzudagi asarning qisqacha mazmuni shulardan iborat.

Bu voqealarga kim aybdor ekanligi haqida mulohaza qilish lozim. Yoshlar o'rtasida bu kabi huquqbazarlikni sodir etilishi hamda professional darajadagi dramatik asarning yaratilishi yoshlar muammosini jamiyatda og'riqli masala ekanini ko'rsatadi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz endi hayotga kirib kelayotgan o'gil-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi, ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning tobora kuchayib borayotganligi hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahmiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbliги va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda.

Teatr katta kuch ekanligi shubxasiz. Ana shu ko'rimli san'at asarida yoshlarni tarbiyalashning samarasи kattadir. Ayniqsa, yoshlar hayotiga bag'ishlangan O'Imas Umarbekovning "Kuzning birinchi kuni" asari asosida sahnalashtirilgan spektakl mana bir necha yildirki turli teatrlar sahnasidan tushmay kelyapti. Negaki bu sahna asari aynan yoshlar hayotiga bag'ishlanganligi uchun ham uning tarbiyaviy kuchi nihoyatda ulkan bo'lmoqda. Spektakl orqali yoshlar ezgulik va yovuzlikni darhol ajratib oladilar va bir umrga bu san'at asari ularning ongiga muhrlanib qoladi. Umuman o'zining hayotiy voqelikka murojaat ekanligi bilan e'tiborni tortadi.

Mazkur spektaklni tomosha qilgan har bir tomoshabin ongida yetarlicha ma'naviy imunitet hosil qiladi. Teatrlarmizda shunaqa asarlar ko'paysa yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Yoshlarni ma'naviy yuksalishiga, dunyoqarashini kenggayishiga katta zamin yaratib, ma'nан yetuk inson bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Biz yoshlarning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini singdirish, ularni barcha balo-qazolardan, bizga begona bo'lgan ta'sirlardan ogoh etish va himoyalash, ota-onalar farzandlarini shu ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelayotganligi jamiyatimizning bugungi va ertangi kuni uchun naqadar muhim ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi anglaymiz.

Xulosa qilib aytganda, o'zligini anglagan har bir xalq, millat va davlat jamiyatning umumbashariy tamoyillarini e'tirof etishi va yoshlari hayotida teatr san'atining ahamiyatini oshirish uchun yuqorida ko'rsatilgan asardek yangi badiiy saviyasi yuksak asarlar yaratish va shu sahna asarlarni yoshlari orasida targ`ib qilish maqsaqga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harakatlar strategiyasi 2017-2021 ilmiy-uslubiy risola Toshkent "Ma'naviyat" 2017. [1]
2. Mahmudxo'ja Behbudiy "Talangan asarlar" Toshkent "Ma'naviyat" 1999.[2]
3. Toshpo`lat Tursunov "XX asr o`zbek teatri tarixi" Toshkent-2010.
4. O'lmas Umarbekov "Saylanma" Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashiryoti 1985.